

## KICHIK BIZNES FAOLIYATI SAMARADORLIGINING NAZARIY ASOSLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14362609>

**Ruzmetova Iroda Yangiboyevna**

*Urganch davlat universiteti*

*Iqtisodiyot kafedrasida o'qituvchisi*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada kichik biznes faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan nazariy asoslar tahlil qilingan. Kichik biznesning iqtisodiy o'sishdagi ahamiyati va uning barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan usullar ko'rib chiqildi. Shuningdek, tadbirkorlik samaradorligini belgilovchi omillar o'rganilib, amaliy takliflar berilgan.

### **Абстракт**

В данной статье анализируются теоретические основы, направленные на повышение эффективности деятельности малого бизнеса. Рассмотрено значение малого бизнеса в экономическом росте и методы, направленные на обеспечение его устойчивости. Также были изучены факторы, определяющие эффективность предпринимательской деятельности, и даны практические предложения.

### **Abstract**

This article analyzes the theoretical foundations aimed at increasing the efficiency of small business activities. The importance of small business in economic growth and methods aimed at ensuring its stability were considered. Also, factors determining the effectiveness of business activity were studied and practical suggestions were made.

### **Kalit so'zlar**

kichik biznes, samaradorlik, tadbirkorlik, resurslar, strategiya, strategik rejalashtirish, innovatsiya, menejment.

### **Ключевые слова**

малый бизнес, эффективность, предпринимательство, ресурсы, стратегия, стратегическое планирование, инновация, менеджмент.

### **Key words**

small business, efficiency, entrepreneurship, resources, strategy, strategic planning, innovation, management.

**Kirish.** Kichik biznes har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Bu soha nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratadi, balki innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashda ham katta rol o'ynaydi [2]. Shunga qaramay, kichik biznesning faoliyat samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan tadqiqotlar muhim dolzarbliikka ega. Ushbu maqolada kichik biznes samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan nazariy va amaliy asoslar yoritiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolada nazariy tadqiqot usullari, jumladan, adabiyotlarni tahlil qilish va solishtirma tahlil usullari qo'llanilgan. Shuningdek, kichik biznes faoliyatini o'lchashga oid indikatorlar aniqlangan va iqtisodiy samaradorlikni baholashga doir turli yondashuvlar ko'rib chiqilgan.

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** Kichik biznes faoliyati samaradorligi mavzusida turli olimlar tomonidan nazariy va amaliy jihatlar bo'yicha muhim tadqiqotlar olib borilgan. Quyida ushbu tadqiqotlarning asosiy yondashuvlari va ularning kichik biznes faoliyati samaradorligini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Jumladan, J.B.Barney resursga asoslangan nazariya (Resource-based theory (RBT)) kichik biznesning muvaffaqiyati va samaradorligi uning ichki resurslariga, jumladan, noyob bilimlar, malakali kadrlar va moliyaviy resurslarga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi [1]. Jozef Shumpeter tadbirkorlik nazariyasida kichik biznesni iqtisodiy innovatsiyalarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko'radi. Shumpeterning fikriga ko'ra [5] kichik biznes yangi mahsulotlar, texnologiyalar va xizmatlarni yaratish orqali iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi, tadbirkorlarning ijodiy yondashuvi kichik biznesning samaradorligini oshiradi, ushbu nazariya kichik biznesning innovatsion salohiyatini oshirishga alohida urg'u beradi. Maykl Porter [4] o'zining "Raqobatbardosh ustunlik" nazariyasida strategik rejalashtirish kichik biznes samaradorligini oshirishda muhim vosita ekanini ko'rsatib o'tadi. Kotler va Armstrong [3] o'zining "Marketing tamoyillari" kitobida kichik biznes uchun marketing strategiyalarining ahamiyatini ta'kidlaydi. Tidd va Bessant [6] innovatsiyalarni boshqarish bo'yicha tadqiqotlarida kichik biznesning samaradorligini oshirish uchun quyidagi jihatlarni ta'kidlaydi ya'ni, innovatsiyalarni muvaffaqiyatli joriy qilish kichik biznesni raqobatda ustun qiladi, texnologik rivojlanish kichik biznesning tezkorlik va moslashuvchanlik qobiliyatini oshiradi. Ushbu nazariya innovatsiyalarni boshqarish bo'yicha muhim amaliy yo'nalishlarni taklif qiladi. Yuqoridagi nazariy yondashuvlar va adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznes samaradorligini oshirishning nazariy asoslari resurslarni boshqarish, strategik qarorlar qabul qilish va innovatsiyalarni qo'llashdan iborat. Har bir yondashuv kichik biznesni rivojlantirishda o'ziga xos

ahamiyatga ega bo'lib, ular bir-birini to'ldiradi. Nazariy yondashuvlarni amaliyotga tatbiq qilish orqali kichik biznesning barqaror rivojlanishini ta'minlash mumkin.

**Tahlil va natijalar.** Kichik biznes samaradorligini o'rganishda bir nechta yo'nalishlar mavjud bo'lib biz ushbu maqolada nazariy va amaliy yo'nalishlarni tahlil qilganmiz.

Kichik biznes samaradorligini o'rganishda quyidagi nazariy yo'nalishlar tadqiq qilindi:

➤ Resursga asoslangan nazariya. Resursga asoslangan nazariya (Resource-Based View (RBV)) kichik biznesning muvaffaqiyati uning ichki resurslari va imkoniyatlariga bog'liqligini ta'kidlaydi [1]. Ushbu yondashuvga ko'ra, o'ziga xos va raqobatchilar tomonidan takrorlab bo'lmaydigan resurslar samaradorlikni oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

➤ Tadbirkorlik nazariyasi. Tadbirkorlik nazariyasi kichik biznesni iqtisodiy innovatsiyalarning manbai sifatida ko'radi. Shumpeter [5] ta'kidlashicha, tadbirkorlar yangi mahsulot va xizmatlar joriy qilish orqali iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadilar.

➤ Strategik menejment nazariyasi. Strategik menejment nazariyasiga ko'ra, kichik biznes samaradorligi to'g'ri strategik qarorlar qabul qilishga va moslashuvchan boshqaruvga bog'liqdir [4].

Kichik biznes samaradorligini oshirishda quyidagi amaliy yondashuvlar muhim ahamiyatga ega:

➤ Moliyaviy boshqaruv: samarali moliyaviy boshqaruv kichik biznesning likvidligi va rentabelligini oshiradi [2].

➤ Innovatsion faoliyat: texnologiyalarni joriy qilish orqali biznes jarayonlarini samaraliroq tashkil etish [6].

➤ Marketing strategiyasi: mijozlarning ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish orqali bozor ulushini oshirish [3].

Kichik biznes samaradorligini o'rganishda turli nazariy maktablar va ularning vakillari muhim hissasini qo'shgan. Ushbu nazariy yondashuvlar kichik biznesning iqtisodiy, strategik, va ijtimoiy jihatlariga oid turli paradigmalariga asoslanadi. Quyida asosiy nazariy maktablar va ularning vakillari haqida ma'lumot keltiriladi. Jumladan, klassik iqtisodiy maktab nomoyondalari vakillari sifatida Adam Smit, Devid Rikardo, Jon Styuart Mill kabi olimlardan o'rganiladi. Ularning ilgari surgan g'oyalari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

• Ushbu maktab vakillari kichik biznesning iqtisodiy ahamiyatini bozorni tartibga solishdagi roli bilan tushuntirgan.

• Adam Smit kichik biznesni bozor raqobatini saqlovchi muhim omil deb ko'rsatgan.

• Ushbu yondashuv kichik biznesning iqtisodiy tizimdagi raqobatni rag'batlantiruvchi vosita sifatida qaralishini ta'minlagan.

Institutsional nazariya iqtisodiy maktab nomoyondalari Duglas Nort, Pol DiMaggio, Valter Pauellarning asosiy qarashlari quyidagicha:

• Ushbu nazariya kichik biznesning samaradorligi ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy institutlarga bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

• Duglas Nort bozorning institutsional sharoitlari, masalan, mulk huquqi va huquqiy tizimning barqarorligi, kichik biznes muvaffaqiyatiga qanday ta'sir qilishini o'rgangan.

• Pol DiMaggio va Valter Pauell esa kichik biznesning ijtimoiy me'yorlarga va tarmoqli munosabatlarga moslashuvini o'rgangan.

Tadbirkorlik nazariyalari maktabi nomoyondalari Israel Kirzner, Piter Druker hisoblanib quyidagi nazariyalarni ilgari surganlar:

• Israel Kirzner tadbirkorlarning bozor imkoniyatlarini topish va ulardan foydalanish qobiliyatini o'rgangan.

• Piter Druker tadbirkorlik faoliyatini kichik biznes uchun strategik qarorlar qabul qilishda innovatsiyalarning asosiy o'rni sifatida ta'kidlagan.

• Ushbu yondashuv kichik biznesning bozordagi o'zgarishlarga tez moslashuvchanligini aniqlashga qaratilgan.

**Xulosa va takliflar.** Kichik biznes faoliyati samaradorligini oshirish uchun biz tomonimizdan quyidagi amaliy choralar tavsiya etiladi:

Birinchidan, ichki resurslardan maksimal foydalanish va o'ziga xos ustunliklarni rivojlantirish zarur. Ikkinchidan, innovatsion mahsulot va xizmatlarni joriy qilish lozim. Uchinchidan, strategik rejalashtirishga e'tibor qaratish yuqori samara beradi. To'rtinchidan, moliyaviy boshqaruvni kuchaytirish va yangi bozorlarni o'zlashtirish.

Kichik biznesning barqaror rivojlanishini ta'minlash nafaqat milliy iqtisodiyotni rivojlantiradi, balki xalqaro raqobatbardoshlikni ham oshiradi.

Kichik biznes samaradorligini o'rganishda turli nazariy maktablar o'z hissasini qo'shib, ushbu sohaning iqtisodiy, boshqaruv va ijtimoiy jihatlarini yoritishga xizmat qilgan. Ushbu nazariyalar kichik biznesni nafaqat ilmiy asosda tushunishga, balki uni rivojlantirish va barqarorligini ta'minlashga yordam beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Barney, J. B. Firm Resources and Sustained Competitive Advantage. Journal of Management. 1991 y. 22-p.
2. Hisrich, R., Peters, M., & Shepherd, D. Entrepreneurship. McGraw-Hill Education. 2013 y. 576 p.
3. Kotler, P., & Armstrong, G. Principles of Marketing. Pearson. 2018. 736 p
4. Porter, M. E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. Free Press. 1985 y. 592 p.
5. Schumpeter, J. A. The Theory of Economic Development. Harvard University Press. 1934 y. 255 p.
6. Tidd, J., & Bessant, J. Managing Innovation: Integrating Technological, Market and Organizational Change. Wiley. 2018. 680 p.